

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING TAKOMILLSHTIRILISHI.

Namangan davlat texnika universiteti
1-son akademik litseyi tarix fani o‘qituvchisi
Qahhorov Rahimjon Samijonovich

Annotatsiya: *Maqolada O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan e‘lon qilingan “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” bo‘yicha so‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan ishlar, yangi huquqiy asoslar, hukumat darajasida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar, ularning amlaga oshirish samaradorligiga to‘xtalib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *strategiya, nodavlat tashkilotlar, yoshlar , gender tengligi, yoshlar agentligi, xalqaro reytinglar, jismoniy tarbiya*

Аннотация: *В статье рассматривается работа, проводимая в последние по годы развитию человеческого капитала в нашей стране, новые правовые основы, меры, разрабатываемые на уровне правительства, и эффективность их реализации в соответствии с «Новой Стратегией развития Узбекистана на 2022-2026 годы», объявленной Указом Президента Республики Узбекистан Шавката Мирзиёева № ПФ-27 от 28 февраля 2023 года.*

Ключевые слова: *стратегия, неправительственные организации, человеческий капитал, гендерное равенство, молодежь, международные рейтинги, физическое воспитание*

Abstract: *The article discusses the work carried out in recent years on the development of human capital in our country, new legal frameworks, measures developed at the government level, and the effectiveness of their implementation in accordance with the “New Uzbekistan Development Strategy for 2022-2026”, announced by the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev No. PF-27 dated February 28, 2023.*

Key words: *strategy, nongovernmental organizations, human capital, gender equality, youth, international rankings, physical education*



*Bizning vazifamiz – to’plangan tajriba
va ilg’or xalqaro amaliyotga suyanan
holda, o’zimizning taraqqiyot va yangilanish
modelini qat’iy amalga oshirishdan iborat.*

*Shavkat Mirziyoyev,
O’zbekiston Respublikasi Prezidenti*

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi”ning e’lon qilinishi mamlakatimizda so’nggi yillarda jadal amalga kengqamrovli islohotlarga huquqiy poydevor bo’lib xizmat qildi. Yangi O’zbekiston kundan kunga yangi imkoniyatlar, yangi istiqbolli rejalar bilan o’zini namoyon etmoqda. Ushbu strategiyada ta’kidlanishicha, yoshlarni ishga joylashtirish va ularning bandligi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida har bir fuqaro davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o’qish imkoniyatini yaratilishi, kasbga o’qitish ko’lamini 2 barovarga oshirilishi, bu jarayonlarda nodavlat muassasalarning ishtirokini 30 foizga yetkazish alohida maqsad qilib olingan.²

Ayniqsa, yoshlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat bosh ustuvor masalasi qilib belgilab olindi. Yoshlarning hayoti va sog’lig’ini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar o’rtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sog’lom turmush tarzini mustahkamlash bo’yicha hukumat miqiyosida chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Yoshlarning ma’naviy, intellektual, jismoniy va axloqiy jihatdan kamol topishiga ko’maklashish bo’yicha mexanizmlar ham ishlab chiqildi.³ So’nggi yillarda respublikamizdagi yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish ishlari jadal suratlar bilan davom ettirilmoqda. Umumta’lim maktablarining kasb o’rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko’maklashuvchi tizim ham joriy etildi.⁴ Yangi O’zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosati haqida gap borar ekan maktabgacha ta’lim tizimining rivojlantirilishi, uning chuqur isloh qilinishi

² <https://president.uz/oz/pages/view/strategy> 144.

³ Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. – “O’zbekiston”, 2017. 124-bet.

⁴ O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 70-maqsad.



alohida etiborga molik. Ushbu strategiya bo'yicha maktabgacha ta'limda mamlakat miqiyosida qamrov darajasini 67 foizdan kamida 80 foizga yetkazish maqsad qilib olingan.⁵

Ushbu maqsad davomi o'laroq 2022/2023-yillarda 6 yoshli bolalarni maktabgacha tayyorlov tizimi bilan qamrab olish darajasini 90 foizga yetgan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yili yakuniga qadar bu ko'rsatkicha 100 foizga yetkazildi. Bu maktabgacha ta'lim tizimiga xususiy sektor mablag'larini jalb qilish orqali 7 mingdan ziyod yangi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarini tashkil etish orqali erishildi. Bog'cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish soha xodimlarining imkoniyatlarini, ularning mehnat samaradorligini oshishiga xizmat qildi. Bunda maktabgacha ta'lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirishga alohida e'tibor berildi. Yangi O'zbekistonda hukumat tomonidan maktabgacha ta'lim tizimida moliyaviy jarayonlarning shaffof tarzda amalga oshirilishi uchun zarur sharoitlarni yaratildi. “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”da yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasidagi ishlarda yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg'usi, bag'rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo'lgan qat'iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalashda maktab ta'limi tizimini rivojlantirish ham alohida o'rin egallaydi. Strategiyada belgilanishicha maktablarni rivojlantirish uchun milliy dasturni joriy etish orqali xaq ta'limi tizimida qo'shimcha 1,2 million o'quvchi o'rni yaratish belgilab qo'yilgan.⁶ Buning uchun so'nggi yillarda yangi maktablar qurildi, xususiy maktablarni soni ko'paytirildi, ta'lim sifatini oshirishni nazarda tutuvchi milliy dasturni ishlab chiqildi. Bundan tashqari o'quv o'rinlari sonini 2026-yil yakuniga qadar 6,4 milliongacha yetkazish maqsad qilib olindi. Nodavlat ta'lim xizmatlari ko'rsatuvchi tashkilotlarga sharoit va imkoniyatlarni kengaytirish orqali ularning ulushini oshirishga erishildi. 2022 – 2026 yillarda 217 ta “Barkamol avlod” bolalar maktabini rivojlantirish bo'yicha dasturni amalga oshir ishlari jadal suratlarda davom etmoqda. Yoshlarni san'at dunyosiga oshno etish, kompyuter va IT texnologiyalari sohasida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlari uchun zarur jihozlar bilan ta'minlangan 100 mingdan ortiq bepul to'garaklar faoliyatini yo'lga qo'yish maqsad qilingan bo'lib, bu boradagi ishlar alohida

⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 38-maqсад.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” 41-maqсад.



tahsin sazovordir. Chekka hududlarda maktab hamda maktabgacha ta'lim muassasalarigacha transport qatnovini yo'lga qo'yib borilmoqda.⁷ Yoshlarni axloqiy negizlarni buzishga olib keladigan xatti-harakatlardan, terrorizm va diniy ekstremizm, separatizm, fundamentalizm, zo'ravonlik va shafqatsizlik g'oyalaridan himoya qilish maqsida hukumat miqiyosida tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, iqtidorli va iste'dodli yoshlarni qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish mexanizmlari ishlab chiqildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan e'lon qilingan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asosida mamlakatimizda Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish borasidagi yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, shuningdek, yoshlarning bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish ishlari, yosh oilalarni ma'naviy va moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, ular uchun munosib uy-joy va ijtimoiy-maishiy sharoitlarni yaratish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish bo'yicha so'nggi yillardajadal ishlar amalga oshirilmoqda.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T. – “O'zbekiston”, 2016.
2. Sh.Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. T. – “O'zbekiston”, 2017.
3. Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. – “O'zbekiston”, 2017.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023 yil 28-fevraldagi PF-27-sonli farmoni bilan “2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi”
5. <https://president.uz/oz/pages/view/strategy>

⁷ Sh.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T. – “O'zbekiston”, 2017.

